



Asosiy kapitalga investitsiyalar


2020- yilning yanvar-sentabr oylarida investitsion faollikni oshgani kuzatilib, asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,8 % ni tashkil etdi.

Jami 8 392,5 mlrd. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, ularning 71,2 % i yoki 5 976,0 mlrd. so'mi jalb etilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, korxonalar, tashkilot va aholining o'z mablag'lari hisobidan 28,8 % yoki 2 416,5 mlrd. so'm moliyalashtirildi.

Jami investitsiyalar hajmida, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi, o'tgan yilning mos davridagi ulushiga nisbatan 2,9 % punktga ko'payib, 12,9 % ni yoki 1 085,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 7 307,4 mlrd. so'm yoki jami investitsiyalarning 87,1 % investitsiyalari o'zlashtirilib, o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 2,9 % punktga kamaydi.

Asosiy kapitalga investitsiyalar



**Markazlashgan moliyalashtirish
manbalari hisobidan
investitsiyalar tarkibi, % da**

**O'tgan yilning mos davriga
nisbatan, % da**

0,8 %

**Suv ta'minoti va
kanalizatsiya tizimlarini
rivojlantirish jamg'armasi**

116,6 %

5,9 %

Respublika byudjeti

85,4 %

6,1 %

**O'zbekiston Respublikasi
kafolati ostida xorijiy
kreditlar**

3,0 m.

**Markazlashmagan moliyalashtirish
manbalari hisobidan
investitsiyalar tarkibi, % da**

**O'tgan yilning mos davriga
nisbatan % da**

17,4 %

Korxonalar mablag'i

77,4 %

11,4 %

Aholi mablag'lari

77,0 %

15,6 %

**Kafolatlanmagan va
boshqa xorijiy investitsiya
va kreditlar**

246,2 %

27,8 %

**Tijorat banklari kreditlari
va boshqa qarz**

2,0 m.

14,8 %

**To'g'ridan-to'g'ri xorijiy
investitsiyalar**

49,0 %

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 1460,3 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 17,4 % ini tashkil etdi. Aholi mablag'lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 11,4 % i yoki 956,3 mlrd. so'mi o'zlashtirildi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 1243,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 16,6 % punktga kamayib, 14,8 % ni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi, mlrd. so'm



Shuningdek, tijorat banklar kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan 2335,9 mlrd. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 27,8 % ini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 14,6 % punktga ko'paydi), O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 51,5 mlrd. so'm (6,1 % va 4,2 % punktiga ko'paydi), kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar 1311,6 mlrd. so'm (15,6 % va 9,0 % punktga ko'paydi), Respublika byudjeti 499,3 mlrd. so'm (5,9 % va 1,4 % punktga kamaygan), Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi 71,1 mlrd. so'm (0,8 % va 0,1 % punktga ko'payish) miqdorida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalar o'sish sur'atlarini moliyalastirish manbalari bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlarda kuzatilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,4 marta o'sdi. Bunday yuqori o'sishga To'qimachilik klasteri tashkil etish, ip homashyo, bo'yalgan mato va tayyor maxsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish. Sun'iy charm ishlab chiqarishni tashkil etish, gidraaponika usulida issiqxonalar tashkil etish va boshqa yirik investitsiya loyihalari doirasida o'zlashtirilgan investitsiyalar sabab bo'ldi.

Shuningdek, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan moliyalashtirilgan investitsiyalar o'tgan yilning mos davriga nisbatan 49,0 % ni tashkil etib, O'zbekiston hamda Beshariq tumanlarida sement ishlab chiqarishni tashkil etish loyihalari shuningdek, gipsakarton va metal profillar ishlab chiqarishni tashkil etish, asbob-uskuna va dastgohlar o'rnatish, Intensiv usulda bog' va muzlatgichli omborxonalar tashkil etish kabi yirik investitsiya loyihalarining jadal o'zlashtirilgani bilan bog'liq.
























FARG'ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar

	Jami asosiy kapitalga investitsiyalar, mlrd. so'm	jamiga nisbatan % da						
		Respublika byudjeti	Korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari	Aholining o'z mablag'lari	Xorijiy investitsiya va kreditlar	Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	Bank kreditlari va boshqa tashkilotlarning qarzi mablag'lari
Farg'ona viloyati:	8392,5	6,0	17,4	11,4	36,6	0,8	-	27,8
<i>Shaharlar:</i>								
Farg'ona	2006,9	10,5	29,2	13,3	35,7	0,0	-	11,3
Qo'qon	628,8	5,2	10,9	7,7	43,0	0	-	33,2
Quvasoy	830,9	0,6	17,3	9,4	62,9	0	-	9,8
Marg'ilon	318,0	2,6	17,3	10,5	15,3	0	-	54,3
<i>Tumanlar:</i>								
Oltiariq	348,0	4,6	12,1	11,0	15,1	19,3	-	37,9
Qo'shtepa	353,7	3,3	18,7	7,2	68,8	0	-	2,0
Bag'dod	86,5	12,9	25,5	14,8	19,8	0	-	27,0
Buvayda	123,2	4,5	15,4	31,9	6,7	0	-	41,5
Beshariq	457,5	3,1	3,6	9,9	12,7	0,3	-	70,4
Quva	191,9	1,8	5,4	48,0	17,6	0	-	27,2
Uchko'prik	400,1	3,2	35,8	3,0	21,6	0	-	36,4
Rishton	119,7	10,1	26,3	9,4	12,4	0	-	41,8
So'x	30,8	40,1	28,9	24,5	5,2	0	-	1,3
Toshloq	219,5	3,1	7,2	14,2	25,0	0	-	50,5
O'zbekiston	1223,2	1,3	6,8	3,0	58,4	0,1	-	30,4
Farg'ona	199,2	14,0	28,3	3,8	24,4	0	-	29,5
Dang'ara	395,5	3,8	6,9	23,2	22,0	0	-	44,1
Furqat	305,2	2,9	16,1	19,4	19,8	0,5	-	41,3
Yozyovon	153,9	45,0	10,1	11,7	19,3	0	-	13,9

*Shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda

**2020- yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar
bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar,**

	<i>o'sish sur'ati</i>	<i>investitsiyalar hajmi, mlrd. so'm</i>	<i>Farg'ona viloyatidagi ulushi</i>
Farg'ona shahar	141,6 % 	2006,9 	23,9 % 
<i>Farg'ona viloyatidagi ulushi</i>	<i>investitsiyalar hajmi, mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati</i>	Qo'qon shahar
7,5 % 	628,8 	125,2 % 	
Quvasoy shahar	136,9 % 	830,9 	9,9 % 
<i>Farg'ona viloyatidagi ulushi</i>	<i>investitsiyalar hajmi, mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati</i>	Marg'ilon shahar
3,8 % 	318,0 	106,7 % 	
Oltiariq tumani	89,7 % 	348,0 	4,1 % 
<i>Farg'ona viloyatidagi ulushi</i>	<i>investitsiyalar hajmi, mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati</i>	Qo'shtepa tumani
4,2 % 	353,7 	139,1 % 	
Bag'dod tumani	41,7 % 	86,5 	1,0 % 

o'sish sur'ati

*investitsiyalar hajmi,
mlrd. so'm*


Farg'ona viloyatidagi ulushi

**Buvayda
tumani**


60,6 %



123,2



1,5 %



*Farg'ona viloyatidagi
ulushi*



5,5 %

*investitsiyalar hajmi,
mlrd. so'm*

457,5



o'sish sur'ati

44,2 %



**Beshariq
tumani**

o'sish sur'ati

64,2 %




*investitsiyalar hajmi,
mlrd. so'm*

191,9




Farg'ona viloyatidagi ulushi

2,3 %



**Quva
tumani**

*Farg'ona viloyatidagi
ulushi*



4,8 %

*investitsiyalar hajmi,
mlrd. so'm*

400,1



o'sish sur'ati

117,7 %



**Uchko'prik
tumani**

o'sish sur'ati

76,5 %




*investitsiyalar hajmi,
mlrd. so'm*

119,7




Farg'ona viloyatidagi ulushi

1,4 %



**Rishton
tumani**

*Farg'ona viloyatidagi
ulushi*



0,4 %

*investitsiyalar hajmi,
mlrd. so'm*

30,8



o'sish sur'ati

40,1 %



**So'x
tumani**

o'sish sur'ati

146,9 %




*investitsiyalar hajmi,
mlrd. so'm*

219,5



Farg'ona viloyatidagi ulushi

2,6 %



**Toshloq
tumani**

Farg'ona viloyatidagi
ulushi



investitsiyalar hajmi,
mlrd so'm



o'sish sur'ati

163,3 %



O'zbekiston
tumani

Far'ona
tumani

o'sish sur'ati


28,3 %




investitsiyalar hajmi,
mlrd. so'm



Farg'ona viloyatidagi
ulushi



Farg'ona viloyatidagi
ulushi



investitsiyalar hajmi,
mlrd. so'm



o'sish sur'ati

119,3 %



Dang'ara
tumani

Furqat
tumani

o'sish sur'ati

2,8 m.




investitsiyalar hajmi,
mlrd. so'm



Farg'ona viloyatidagi
ulushi



Farg'ona viloyatidagi
ulushi



investitsiyalar hajmi,
mlrd. so'm




o'sish sur'ati

87,8 %



Yozyovon
tumani

**Asosiy kapitalga investitsiyalarning
o'sish sur'atlari, (% da jamiga nisbatan)**




Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilishi bo'yicha o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'ati 2,8 martaga o'sib, Furqat tumanida kuzatildi. Bu asosan gipsakarton va metal profillar ishlab chiqarish bilan bog'liq.

Shuningdek, O'zbekiston tumanida ham yuqori o'sish surati kuzatilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 163,3 % ni tashkil qildi. Bunday natijani «Jakob Pfeiffer Fergana» qo'shma korxonasi tomonida tashkil etilayotgan sement zavodi bilan izohlash mumkin.

Quvasoy shahrida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining o'tgan yilning mos davriga nisbatan 136,9 % ni tashkil etishi, qurilish uchun oynalar ishlab chiqarish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar bilan bog'liq.

Viloyatda investitsiyalar hajmi bo'yicha yuqori ulushga (23,9 %) ega bo'lgan Farg'ona shahri hamda Qo'qon shaharlari (7,5 %) Farg'ona viloyati bo'yicha jami hajmi o'sish sur'atining oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

**Asosiy kapitalga investitsiyalarning
texnologik tarkibi, (% da jamiga nisbatan)**



Farg'ona Viloyati bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida mashina, uskuna va inventarlarga 4225,2 mlrd. so'm investitsiyalar o'zlashtirilgan bo'lib, jami investitsiyalarning 50,3 % ini tashkil etdi, qurilish montaj ishlari bo'yicha 3493,5 mlrd. so'm (jami investitsiyalardagi ulushi 41,6 %) va boshqa xarajatlarga 673,8 mlrd. so'm (8,1 %) o'zlashtirildi.

Hududlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich O'zbekiston tumanida kuzatildi – 66,4 % yoki 811,8 mlrd. so'm. Qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng quyi daraja Qo'shtepa tumanida kuzatilib, 18,3 % ni yoki 64,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Va Uchko'prik tumanida mashina, uskunalar va inventarlarga xarajatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich – 79,9 % yoki 319,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

**Asosiy kapitalga
investitsiyalarning takror
ishlab chiqarish tarkibi,
(% da jamiga nisbatan)**

**Yangi qurilish-
39,1 %**

**Kengaytirish,
rekonstruksiya,
modernizatsiya - 30,3 %**

**Boshqa yo'nalishlar -
30,6 %**

















Joriy hisobot davrida ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning katta qismi yangi qurilishga yo'naltirildi. Yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 3282,5 mlrd. so'mni tashkil etib, jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 39,1 % ini tashkil etdi.

Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar 2545,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va respublikadagi jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 30,3 % ini tashkil etdi. Qolgan 30,6 %, ya'ni 2564,5 mlrd. so'm boshqa xarajatlarga yo'naltirildi.

Shahar va tumanlar kesimida Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi

(jamiga nisbatan %)

		Qurilish montaj ishlari	Mashina, uskuna, inventarlar	Boshqa xarajatlar
	Farg'ona viloyati	41,6	50,3	8,1
	shaharlar:			
	Farg'ona	37,7	50,6	11,7
	Qo'qon	48,4	45,3	6,3
	Quvasoy	23,5	74,5	2,0

	Marg'ilon	39,5	59,5	1,0
	<i>tumanlar:</i>			
	Oltiariq	43,1	54,8	2,1
	Qo'shtepa	18,3	12,7	69
	Bag'dod	49,9	48,4	1,7
	Buvayda	37,6	60	2,4
	Beshariq	27,4	71,2	1,4
	Quva	53,0	44,4	2,6
	Uchko'prik	19,2	79,9	0,9
	Rishton	41,5	57,9	0,6
	So'x	63,8	27,7	8,5
	Toshloq	48,8	43,3	7,9
	O'zbekiston	66,4	29,0	4,6
	Farg'ona	32,9	64,6	2,5
	Dang'ara	56,1	43,7	0,2
	Furqat	45,4	47,0	7,6
	Yozyovon	57,5	38,7	3,8

Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida qayta ishlash sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu iqtisodiy faoliyat turida jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 3723,8 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 44,4 % i o'zlashtirilgan. Uning tarkibida eng ko'p investitsiyalar o'zlashtirilgan 3 ta faoliyat turlari quyidagilar:

- boshqa nometall mineral mahsulotlari ishlab chiqarish - 1824,0 mlrd. so'm (21,7 %);


- rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish - 357,4 mlrd. so'm (4,3 %);

- to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish - 761,3 mlrd. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 9,1 %).

Tog'-kon sanoatida jami 251,0 mlrd. so'm yoki viloyat bo'yicha jami investitsiyalar hajmining 3,0 % i o'zlashtirilgan bo'lib, uning tarkibidan 62,5 % i yoki 156,9 mlrd. so'mi ko'mir va ko'mirni qazib olish sohasiga tegishlidir.



Farg'ona viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, (mlrd. so'm)



2020- yil yanvar-sentabr oylarida 3069,7 mlrd. so'm yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning 36,6 % i xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan o'zlashtirildi.

Jami xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida xorijiy investitsiyalar 1304,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va qolgan 1764,7 mlrd. so'm xorijiy kreditlar hisobiga to'g'ri keldi.

Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar


mlrd. so'm

	Jami	Shu jumladan:		
		To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	O'z.R. kafolati ostida xorijiy kreditlar	Kafolatlanmagan boshqa investitsiya va kreditlar
Farg'ona viloyati	3069,7	1243,4	514,7	1311,6
Farg'ona sh.	716,3	123,70	500,4	92,2
Qo'qon sh.	270,4	170,00	0,0	100,4
Quvasoy sh.	521,6	3,00	10,1	508,5
Marg'ilon sh.	48,90	10,2	0	38,7
Oltiariq t.	52,7	6,00	0,0	46,7
Qo'shtepa t.	243,3	0,00	2,3	241,0
Bag'dod t.	17,2	0,00	0,0	17,2
Buvayda t.	8,3	0,00	0,2	8,1
Beshariq t.	58,1	58,10	0,0	0,0
Quva t.	33,9	21,00	0,1	12,8
Uchko'prik t.	86,5	2,20	0,0	84,3
Rishton t.	14,9	8,40	0,1	6,4
So'x t.	1,6	1,10	0,6	0,0
Toshloq t.	54,6	27,30	0,04	27,2
O'zbekiston t.	715,4	715,40	0,0	0,0
Farg'ona t.	48,7	12,60	0,5	35,6
Dang'ara t.	87,2	24,80	0,1	62,3
Furqat t.	60,5	59,60	0,2	0,6
Yozyovon t.	29,6	0,00	0,04	29,6



To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan joriy davrda 2555,0 mlrd. so‘m o‘zlashtirilgan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostida 51,5 mlrd. so‘m xorijiy kreditlar o‘zlashtirildi.

Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlarning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur‘ati 95,3 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi, (% da)



Foydalanishga topshirilgan turar-joylar tarkibi





Viloyat bo‘yicha 62,6 km suv tarmog‘i, 5,2 km gaz tarmog‘i ishga tushirildi.

Suv tarmog‘i qurilishi bo‘yicha 2367,0 mln. so‘m, gaz tarmog‘i qurilishi bo‘yicha 168,9 mln. so‘m investitsiyalar o‘zlashtirildi.

*Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo‘limi*

Aloqa telefoni: **(0373) 241-98-42**

Bajaruvchi: *Umarov U.*